

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY OROL BO'YLARIDA BALIQCHILIKNING RIVOJLANISHI TARIXIDAN

Sulaymanov Salamat Arepbayevich

Qoraqalpoq davlat universiteti, dekan, professor.

e-mail: s_salamat@karsu.uz ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-8691-3131>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada qoraqalpoq xalqining qadimgi davrlardan xo'jaligining asosiy muhim sohalaridan biri bo'lgan baliqchilikning rivojlanishi, baliqchilikka oid arxeologik manbalar, arab geograflarining baliqchilik haqidagi yozma manbalari, baliqchilik bilan shug'ullanuvchi qoraqalpoq urug'larining joylashuvi, baliq ovlash qurollari, baliqchi aholi yashagan mavzalar, Orolbo'ylariga surgun qilingan xalqlar va ularning baliq ovlash uslublari, Xiva xonligi Xiva arxividan topilgan baliqchilik xo'jaligiga oid hujjatlar, Rossiya iqtisodiyoti ta'sirida baliqchilik sohasining rivojlanishi talqin qilingan. Shuningdek, qoraqalpoq shoirlarining asarlarida baliqchilik kasbi haqidagi qarashlar, baliqchilikning rivojlanishida Amudaryo va Orol suv yo'llarining muhim ahamiyati haqida ilmiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Janubiy Orolbo'ylari, Amudaryo, Orol dengizi, Xorazm, Xiva xonligi, Amudaryo bo'limi, Mo'ynoq oroli, Urga, Terbenbes, Qoraterang, baliq sanoati, suv yo'llari, suv transporti, baliq ovlash qurollari.

ИЗ ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ РЫБОЛОВСТВА В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

Сулайманов Саламат Арэпбаевич

Каракалпакский государственный университет, декан, профессор.

Аннотация.

В данной статье рассматривается развитие рыболовства как одной из важнейших отраслей хозяйства каракалпакского народа с древнейших времен. Проанализированы археологические материалы, связанные с рыболовством, письменные сведения арабских географов, размещение каракалпакских родов, занимавшихся рыбным промыслом, рыболовные орудия и районы проживания рыбацкого населения. Освещены особенности рыболовства народов, сосланных в Приаралье, документы по рыбному хозяйству, обнаруженные в архиве Хивинского ханства, а также влияние российской экономики на развитие рыбной отрасли. Кроме того, приведены научные сведения о представлениях каракалпакских поэтов о рыболовном промысле и раскрыта важная роль Амударьи и Аральского моря как водных путей в развитии рыболовства.

Ключевые слова: Южное Приаралье, Амударья, Аральское море, Хорезм, Хивинское ханство, Амударьинский отдел, остров Муйнак, Urga, Тербенбес, Каратеренг, рыбная промышленность, водные пути, водный транспорт, рыболовные орудия.

FROM THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF FISHERIES IN THE SOUTHERN ARAL REGION IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

Sulaymanov Salamat Arepbayevich

Karakalpak State University, Dean, Professor.

Abstract.

This article examines the development of fisheries as one of the principal branches of the Karakalpak people's economy since ancient times. It analyzes archaeological evidence related to fishing, written accounts of Arab geographers, the settlement of Karakalpak clans engaged in fishing, fishing gear, and the areas inhabited by fishing communities. The study also discusses the fishing practices of peoples exiled to the Aral region, documents on the fishing industry preserved in the archives of the Khiva Khanate, and the influence of the Russian economy on the development of the fishing sector. In addition, the article presents scholarly information on the perception of the fishing profession in the works of Karakalpak poets and highlights the significant role of the Amu Darya River and the Aral Sea as waterways in the development of fisheries.

Keywords: Southern Aral Region, Amu Darya, Aral Sea, Khorezm, Khiva Khanate, Amu Darya Department, Muynak Island, Urga, Terbenbes, Karatereng, fishing industry, waterways, water transport, fishing gear.

Kirish. Baliqchilik qoraqalpoq xalqi xo'jaligining asosiy va muhim sohalaridan biri hisoblangan. Janubiy Orolbo'ylaridagi arxeologik tadqiqotlar natijasida Amudaryoning quyi deltasidagi shaharlarda istiqomat qilgan xalqlar tarixiga oid arxeologik qazishmalar davomida baliqchilik qurollari, baliq suyaklarining qoldiqlari hamda ov to'qishda qo'llanilgan, baliq rasmi tasvirlangan asbob-anjomlar topilgan [1; 22–24-b.]. Shunga qarab, mazkur shaharlar atrofida istiqomat qilgan aholi baliqchilik, chorvachilik va dehqonchilik xo'jaligini kompleks tarzda birgalikda olib borgan.

Shimoliy Xorazmda baliqchilik mintaqa aholisi hayotida katta o'rin egallagani haqida IX–XI asrlarda yashab o'tgan arab geograflaridan biri Ibn Rusta vohaning shimoliy qismidagi Xolidjon deb nomlangan joy haqida: «Unda baliqchilar istiqomat qilib, baliq ovlaydi va uni Xorazm atrofidagi yerlarga sotishga chiqaradi», deb yozgan bo'lsa, yana bir arab geografi al-Istaxriy: «Jayhun baliqchilar istiqomat qilgan yerdagi Xorazm ko'liga quyiladi», deb ko'rsatadi [2; 171–198-b.].

Janubiy Orolbo'ylaridagi ko'l va daryo irmoqlari baliq ovlash uchun juda qulay bo'lgan. Shu bois bu hududlarda xo'jalikning baliqchilik sohasi asosiy o'rinni egallagan.

XIX asrning birinchi yarmidayoq baliqchi aholi Terbenbes, Mergenotov, Tezbesqum, Oqbetkey, Toyloqjegen, Qoraboyli, Erjorol, Oqqal'a, Urga, Qorajar, Ayirsha, Duzli, Qoybergen, Jumaloq, To'qmoq ota mavzellarida istiqomat qilgan. Ular uchun baliq ovlashning asosiy manbalari Orol dengizi, Amudaryo, Quvonch–Jarma va Davqara, Qo'ng'irotda hamda Qora-Teran ko'llari bo'lgan.

Baliqchilik kasbi bilan qoraqalpoqlarning eski Qo'ng'irotda arisiga (chaqobchasiga) kiradigan urug'lari ko'proq shug'ullangan. Amudaryoning quyi oqimining shimoli-sharqiy qismidagi Orolbo'ylarining Terbenbes, Muyten buget, Tezbesqum, Mergen, Yerjan, Ayirsha, Ko'ko'zek, Yangi so'v, Qarabasqum, Jartamaq, Muyten uzyak, Aqqum kabi hududlarida qadimgi muyten urug'lari yashagan. Ular bilan qo'shni quldauli urug'lari Katta daryo bilan Terbenbes oralig'ida hamda Yesim va Kegeyli kanallarining quyi oqimlarida baliqchilik bilan keng shug'ullangan. Ulken daryo bilan Talliq oralig'idagi hududlarda esa balg'ali urug'lari istiqomat qilgan. Talliqning chap sohilidagi Hakim ota bo'g'ozidan boshlab dengizgacha bo'lgan hududda esa qiyat-ashamayli urug'lari yashagan [3; 72-b.].

Qoraqalpoqlarning ushbu qismining xo'jalik hayotida baliqchilikning tutgan o'rni katta bo'lganligi to'g'risida XIX asr va XX asr boshlaridagi rus tadqiqotchilarining asarlarida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. XIX asrning birinchi yarmida Janubiy Orolbo'ylariga kelgan G. Gelmerson: «Qoraqalpoqlar katta bo'lmagan kemalar bilan Orol dengiziga borib baliq ovlaydi», deb yozgan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida Rizo Quli Mirzo: «Qoraqalpoqlarda baliq ovlovchilik oliy darajada turadi», deb ta'kidlaydi [4; 12–13-b.].

Qoraqalpoqlar xo'jaligida baliqchilik, ayniqsa, Amudaryoning o'ng sohili Rossiya tarkibiga qo'shilib, Amudaryo bo'limi tashkil etilganidan so'ng keng ko'lamda rivojlandi va baliq mahsulotlari tovar darajasiga ko'tarildi [5]. Bo'lim baliqchilari asosan Mo'ynoq tumani hududlariga joylashdilar. Oktyabr inqilobidan oldingi yillarda Mo'ynoq orolida 340 ta qoraqalpoq va qozoq, 160 ta rus xo'jaligi, 1915-yilda Urgada 300 ta xo'jalik, Terbenbesda 80 ta xo'jalik, Qorateran orolida 45 ta xo'jalik hamda Qorao'zak bo'ylarida 150 ta qoraqalpoq va qozoq xo'jaligi mavjud bo'lgan [6].

XIX asrning oxirida baliq ovlashdan olingan daromad o'lkaning asosiy tashqi savdo aylanmasini tashkil etgan. Baliqchilik qirg'oqbo'yi mintaqalari aholisi — qoraqalpoqlar, qozoqlar va ko'chmanchi Ural kazaklarining asosiy mashg'ulotiga aylangan. 1876-yilda aka-uka Vanyushinlar baliq sotib olish uchun korxona tashkil etdilar. Qo'ng'irotda baliq do'konlari ochildi, baliqning dastlabki partiyalari Rossiyaga yuborila boshlandi [7; 113-b.].

1874-yilda Uraldan 5 mingdan ortiq rus kazaklari O'rta Osiyoga surgun qilindi, ularning aksariyati Amudaryo bo'limiga joylashtirildi. Qoraqalpoqlar va Ural kazaklari o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatildi. Qoraqalpoq baliqchilari ruslardan baliq ovlashning ayrim usullarini o'zlashtirib, baliq ovlash vositalarini takomillashtirdilar. Ilgari qayiqda suzish, eshkak va to'rtburchak yelkandan boshqa transport vositalari haqida tasavvurga ega bo'lmagan qoraqalpoqlar ruslardan uchburchak yelkandan foydalanishni o'rganib, bu orqali mehnatlarini yengillashtirdilar. O'z navbatida, rus ko'chmanchilari ham qoraqalpoqlarning ko'plab an'anaviy mehnat qurollari va baliq ovlash usullarini o'zlashtirdilar [8; 49-b.].

Orol dengizi va Amudaryoning quyi oqimidagi baliqchilik sanoati hududlarining asosiy qismi Rossiya imperiyasi bilan Xiva xonligi o'rtasida bo'lingan edi. Ular o'rtasidagi chegara Talliqning chap qirg'og'i (Amudaryoning g'arbiy tarmog'i)dan Talliq qo'ltig'igacha, so'ng shimol tomondan To'qmoqota yarim oroli qirg'og'iga, undan esa Urga tomonga, Tojiboy qo'ltig'igacha cho'zilgan. Shunday qilib, Urga, Bo'zatov va Qo'ng'irotda hududlaridagi baliq ovlanadigan joylar Xiva xonligi tasarrufida bo'lgan [1; 86–88-b.].

Xiva arxivida Xiva xonligida baliqchilik hamda qoraqalpoq baliqchilarining rus baliqchilari bilan bo'lgan munosabatlariga oid 50 betga yaqin hujjatlar aniqlangan. Ularda Xiva xoni bilan Amudaryo bo'limi boshlig'ining baliqchilik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar masalasiga doir yozishmalari jamlangan. Amudaryo bo'limi boshlig'i general-mayor Rozganovning 1889-yil 24-fevralda Xiva xoniga yozgan xatidan ma'lum bo'lishicha, baliqchilik va baliq savdosi bilan shug'ullanuvchi Astraxan savdogari Mixail Petrovich Vorobyovga Amudaryodagi Oqqal'a yaqinida baliq ovlash uchun ruxsat berilgan. Shuningdek, unga o'ziga tegishli hududlarda (daryo va ko'llarda) baliq ovlash, baliqni tuzlash hamda baliqchilik faoliyatini amalga oshirish uchun yerlarni ijaraga olish imkoniyati ham berilgan. Mazkur xatda yerlarni ijaraga berish xonlik xazinasini boyitishning muhim omillaridan biri ekani ham ta'kidlangan [10; 59-b.].

Xonlik 1876-yilda qozoqlarning olim urug'i hamda qoraqalpoqlarning qiyat va ochamoyli urug' jamoalariga Talliq

arnasining chap tomonidan Talliq ko'ligacha, shimol tomondan To'qmoq ota o'tovi va Hojiboy ko'ligacha hamda Urg'ichadan Urganing dengizga quyiladigan joyigacha bo'lgan yerlarni bo'lib bergan. Ular dehqonchilik, chorvachilik va baliqchilik bilan shug'ullanib, xonlikka muonat solig'ini to'lab yashagan. Biroq 1893-yilda Orol dengizi suvi toshganidan so'ng Rossiya baliqchilari ushbu yerlarni egallab olib, Xiva fuqarolarini bu hududlardan haydab chiqargan, hatto ularga zarar yetkazgan. Hujjatlarda Rossiya fuqarolarining bunday xatti-harakatlari Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlariga zid ekani qayd etilgan. Yozishmalardan ma'lum bo'lishicha, xonlik tasarrufidagi qozoq va qoraqalpoq, qiyat hamda ochamoyli urug'lari Mo'ynoq (To'qmoqotov)ning janubiy qismi, Bo'zatov, Ko'kko'l, Urg'i, Talliq va Arnaning chap sohillarida dehqonchilik hamda chorvachilik bilan bir qatorda baliqchilik bilan ham shug'ullangan. 1893-yildan so'ng baliqchilik ularning asosiy mashg'ulotiga aylangan. Orol dengizi suvi toshganidan keyin Amudaryo bo'limi bilan Xiva xonligi o'rtasidagi chegara hududlarida baliqchilik bilan shug'ullanuvchi Rossiya va Xiva fuqarolari o'rtasida baliq ovlanadigan hududlar uchun kurash kuchaygan. Ayniqsa, Rossiyalik yirik baliqchilik tadbirkorlarining mahalliy aholiga nisbatan zulm o'tkazgani yaqqol kuzatiladi [10; 59-b.].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya iqtisodiyotining ta'siri ostida Amudaryoning quyi oqimida baliqchilik sohasi jadal rivojlana boshladi. Bunga 1876-yilda Orenburg savdo firmasi aka-uka Vanyushinlar tomonidan baliqchilik korxonasining tashkil etilishi sabab bo'lgan. 1889-yilda Astraxandan savdogar Vorobyov kelib, baliq mahsulotlarini sotib ola boshladi. XIX asrning 90-yillariga kelib 40 ga yaqin baliq sanoati vakillari tasarrufida 307 ta qayiq va 563 ta baliq ovlash quroli mavjud bo'lgan. Shu bilan birga, 4600 nafar baliqchi 420 ta qayiq va 2600 ta baliq ovlash quroliga ega edi.

XIX asr oxirida Ko'k qishlog'ida, Nukusdan uncha uzoq bo'lmagan hududda, 60 ga yaqin Ural kazaklari hamda 300–400 nafar qoraqalpoq baliqchilarini yollagan 10 nafar rus baliqchisi yashagan. XIX asr oxirlariga kelib Orol dengizidagi baliqchilik sanoatining asosiy qismi yirik orenburglik savdogar Makeyev qo'lida bo'lgan. Bundan tashqari, Qoraqalpog'istonda aka-uka Gorshkovlar, Kirillin va Djandibekovlar kabi baliq savdogarlari ham faoliyat yuritgan [11; 234-b.]. Baliq mahsulotlari Kazalinskka, u yerdan esa Rossiyaning markaziy shaharlariga jo'natilgan.

1910-yilga kelib Qoraqalpog'istonda yirik baliq savdogarlari paydo bo'lib, baliqchilik jamiyatlari tashkil etildi. O'sha yili Astraxan va Kavkaz baliq savdogarlarini birlashtirgan «**Xiva**» aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi.

Orol dengizining sharqiy qirg'og'ida minglab baliqchilarga ega kamida 30 ta baliqchilik xo'jaligi faoliyat yuritgan bo'lsa, Orol dengizining janubiy qismida baliq qabul qilish punktlari va muzliklar (sholan) soni 42 taga yetgan. Baliqchilik va yuk tashuvchi qayiqlar, shuningdek, baliq ovlash vositalari soni ham ortgan. 1888-yilda 500 ta baliqchilik va yuk tashuvchi qayiq mavjud bo'lgan bo'lsa, 1911-yilda ularning soni 620 taga yetgan. Shundan 195 tasi dengizning janubiy qismida, 314 tasi esa daryoda baliq ovlash uchun foydalanilgan [12].

1911-yilda baliqchilik bilan shug'ullanuvchilar qo'lida to'r va o'rgimchak to'rlar soni 13 020 taga yetgan, ya'ni bu ko'rsatkich 1887-yilga nisbatan to'rt baravar ko'p edi. Baliqchilar soni 1903-yildagi 914 nafardan 1913-yilda 2636 nafarga yetgan. Baliq ovlash hajmi yiliga 149 449 pud dan 1913-yilda 669,1 ming pudga yetgan [13].

Shuningdek, Janubiy Orolbo'yi qoraqalpoqlarining baliqchilik kasbi qoraqalpoq shoirlari asarlarida ham keng ifodasini topgan. XVIII asrda yashab ijod qilgan taniqli qoraqalpoq shoiri Jiyen-jirov o'zining «**Posqan el**» tolgauda (poemasida) Orolbo'yiga ko'chib kelib joylashgan qoraqalpoqlarning og'ir ahvolini hamda baliqchilarning turmush tarzini tasvirlaydi [14].

Shuningdek, XIX asrda yashab ijod qilgan shoir Kunxo'ja Ibrohim o'g'li o'zining «**Jaylawim**» she'rida shunday yozadi:

Ata-jurti Turkistannan kelgeli,
Teristöbe, Uzingayir jaylawim,
Yerjan ataw menen shıgısı – Irza,
Teñizlerden awqat etken jaylawim.
Baliq awlap Toqtas, Mantıq boyınan,
Baliq shanshıp jazda jürgen oyınnan,
Shanshıp saylap jürüp jayın moyınnan,
Ata-babam awqat etken jaylawim, — deydi [15].

Baliqchilik kasbi bilan Janubiy Orol hududidagi qozoqlar ham shug'ullangan. Ularning baliqchilik bilan shug'ullanuvchi elatlari 1917-yilgacha asosan To'qmaq ota, Uchsay, Urga, Aqbetkey, Taylaqjegen, Qarabayli hamda Ulken daryoning quyi oqimi bo'ylarida istiqomat qilgan. Qozoqlar baliqchilik bilan Xorazm vohasiga ko'chib kelishidan avval Shimoliy Orol va Kaspiy dengizi bo'ylarida, Orol sohillarida hamda Sirdaryoning quyi oqimida yashagan davrlaridanoq shug'ullangan. Ularning ko'pchilik qismi Sirdaryoning quyi oqimida, Janadaryo, Quvandaryo va Orol dengizining sharqiy qismida qoraqalpoqlar bilan birgalikda baliqchilik qilgan [16; 14-b.].

Orol baliqchilarining baliq ovlash qurollari va transport vositalari 1917-yilgacha juda sodda bo'lgan. Ular baliq ovlashda asosan to'r, jilim (setkali to'r), qarmoq, baspay, chanishqi, qaza, ilme va kershini kabi qurollardan foydalangan. Ularning asosiy transport vositalari qayiq, sol va shanadan iborat bo'lgan.

Janubiy Orolbo'yi va Xorazm vohasida baliqchilikning rivojlanishi Amudaryo hamda Orol dengizi suv yo'llarining holatiga bevosita bog'liq bo'lgan. Chunki Orol dengizi va hududdagi ko'llarda ovlangan baliq mahsulotlarini tashqi hududlarga olib chiqishda asosiy o'rinni suv transporti egallagan. Biroq keyingi yillarda suv tanqisligi va qurg'oqchilik sababli baliqchilik asosan sun'iy usulda rivojlantirilmogda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mambetullayev M. M., Turebekov M., Yusupov O. *Qaraqalpaqstan tariyxi*. – No'kis, 2010. – 22–24-betler.
2. *Материалы по истории туркмен и Туркмении* (МИТТ). – Т. I. – М.–Л., 1939. – С. 171–198.
3. Андрианов Б. В. *Қарақалпақлардың Әмиўдарьяның төменги ағысына көшип қонысласыў тарийхынан*. – Нөкис, 1963. – 72-бет.
4. Өтемисов А. *Қарақалпақстан балықшылары*. – Нөкис, 1979. – 12–13-бетлер.
5. *Хозяйство Каракалпакии в XIX – начале XX века*. – Ташкент, 1972.
6. Шалекенов У. Х. *Казахи низовьев Амударьи. К истории взаимоотношений народов Каракалпакии в XVIII–XX вв.* – Ташкент: ФАН, 1966.
7. Лунин Б. В. К описанию народного промысла каракалпаков // *Вестник ККФАН УзССР*. – Нукус, 1968. – № 3–4. – С. 113.
8. Нурмухаммедов М. К., Камалов С. К., Жданко Т. А. *Каракалпаки*. – Ташкент: ФАН, 1971. – 49-бет.
9. *Қарақалпақстанның жаңа тарийхы. Қарақалпақстан XIX-әсирдиң екінши ярымынан XXI-әсирге шекем*. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2003. – 86–88-бетлер.
10. Jalilov O. *XIX–XX asr boshlaridagi Qoraqalpoq tarixidan* (Xiva davlat hujjatlari asosida). – Toshkent: FAN, 1986. – 59-bet.
11. *Очерки истории Каракалпакской АССР*. – Т. I. – С. 234.
12. Өтемисов А. *Қарақалпақстан балықшылары*. – Нөкис, 1977.
13. Төреев А. *XIX-әсирдиң ақыры XX әсирдиң басында Қарақалпақ үлкеси дийханлары ҳәрекети*. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 1991.
14. Жийен Тағай улы. *Посқан ел*. – Қарақалпақ әдебияты. – Нөкис, 2016.
15. *Күнхожа таңламалы шығармалары*. – Нөкис, 2017.
16. Өтемисов А. *Қарақалпақстан балықшылары*. – Нөкис, 1979. – 14-бет.